
BILASIZMI?



Bilasizmi?

Dastlabki sinovdan o'tish mehnat shartnomasida shartlashilgan bo'lishi kerak

Bunday shartlashuv mavjud bo'lmagan taqdirda, xodim dastlabki sinovsiz ishga qabul qilingan deb hisoblanadi.

Quyidagilar ishga qabul qilinganda dastlabki sinov belgilanmaydi:

homilador, 3 yoshga to'lmagan bolasi bor ayollar yoki 3 yoshga to'lmagan bolani yolg'iz tarbiyalayotgan ota (vasiy);

zaxiradagi ish o'rinlariga joylashtirish uchun yuborilgan shaxslar;

davlat grantlari asosida o'qigan va OTMni tamomlagandan 3 oyda yo'llanma bo'yicha ishga kirayotgan bitiruvchilar;

o'qishni tamomlagandan 1 yilda birinchi bor ishga kirayotganda olingan mutaxassisligi bo'yicha mustaqil ravishda ishga joylashayotgan maktab, kollej, texnikum va OTM bitiruvchilari;

6 oygacha mehnat shartnomasi tuzilayotgan xodimlar;

18 yoshga to'lmagan shaxslar;

ishga qaytadan qabul qilingan taqdirda ish beruvchi ilgari qaysi xodimlar bilan mehnat shartnomasini alohida asoslar bo'yicha bekor qilgan bo'lsa, o'sha shaxslar;

ishlab chiqarishda o'qitish shartnomasi bo'yicha ushbu ish beruvchida o'qishni o'tagan o'quvchilar;

jamo'a kelishuvlarida, shuningdek jamoa shartnomasida va ish beruvchining ichki hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa xodimlar.

So'x tumani hokimligi Axborot xizmati

[Bizni ijtimoiy tarmoqlarda kuzating](#)

[Facebook](#) | [Telegram](#) | [Telegram murojaat](#) | [Youtube](#) | [Instagram](#)

2023-12-28 15:31:09